O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

O‘ZBEKISTON-XITOY ARXEOLOGIYA QO‘SHMA KAFEDRASI

60220400 – Arxeologiya ta’lim yo‘nalishi
22.81 guruh talabasi To‘ymurodov Asilbekning

O‘rta Osiyoning qadimgi va o‘rta asrlar urbanizatsiyasi fanidan

“Buxoro shahrining urbanistik rivojlanishi”

mavzusidagi

KURS ISHI

Ilmiy rahbar: Hasanov M.

Farg‘ona shahri – 2025-yil

Mazkur tartiblar O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2016-yil 6-apreldagi 137-sonli hamda 2018-yil 25-avgustdagi 744-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan DTS, MT va tegishli fanlarning namunaviy fan dasturlari asosida ishlab chiqilgan hamda vazirlikning 2019-yil 4-oktabrdagi 892-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Jahon tarixi” fani dasturi bilan boyitilgan bo‘lib, kurs ishiga qo‘yilgan umumiy talablar, kurs ishini yozish qoidalari, fanlar bo‘yicha joriy o‘quv yilida bajariluvchi kurs ishlari mavzulari bazasini o‘z ichiga olgan.

O‘zbekiston-Xitoy arxeologiya qo‘shma kafedrasi mudiri dotsent G.K. Farmanova

© FarDU O‘zbekiston-Xitoy arxeologiya qo‘shma kafedrasi

MUNDARIJA

Kirish……4

I BOB. BUXORO SHAHRINING TARIXIY SHAKLLANISHI VA URBANISTIK RIVOJLANISHI……6-13

I.1-§. Buxoro shahri tarixi va shahar urbanizatsiyasi……6

I.2-§. Somoniylar, Amir Temur va temuriylar davrida Buxoro……9

II BOB. KEYINGI DAVRLARDA BUXORO SHAHRINING URBANISTIK RIVOJLANISHI……14-30

II.1-§. XVI-XIX asrlarda Buxoro shaharlari urbanizatsiyasi……14

II.2-§. 1920-1990-yillarda Buxoro shaharsozligi: Taraqqiyot va tanazzul……20

II.3-§. Mustaqillik yillarida Buxoro……28

Xulosa……31

Foydalanilgan manba va adabiyotlar……33

Ilova……35

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida shaharsozlik siyosati, xususan, tarixiy shaharlarda urbanistik rivojlanishni ilmiy asosda tashkil etish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Buxoro shahri – nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo hududining eng qadimiy shaharlaridan biri sifatida o‘zining ko‘p asrlik madaniy merosi, noyob me’moriy yodgorliklari va shahar tuzilishining o‘ziga xos tizimi bilan ajralib turadi. Shu bois Buxoro shahrining urbanistik rivojlanishini o‘rganish, unda tarixiylik va zamonaviylik uyg‘unligini ta’minlash, shahar infratuzilmasining barqaror rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi.

Xususan, “Buxoro asrlar davomida jahon tsivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan, haqli ravishda shahriflik maqomiga sazovor bo‘lgan[1]” – deydi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Bu fikr Buxoroning nafaqat mahalliy, balki global madaniy merosga ega ekanini, shaharni rivojlantirishda tarixiy obidalar va madaniy merosning asosiy rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Zamonaviy urbanizatsiya jarayonlari fonida Buxoro shahrining arxitektura-rejalashtirish tizimini saqlab qolish, transport, ekologiya va demografik o‘sish kabi omillarni hisobga olgan holda yangicha rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish zarurati mavjud. Shu sababli, Buxoro shahrining urbanistik rivojlanish jarayonlarini tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan tahlil qilish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kurs ishining maqsadi. Mazkur kurs ishining asosiy maqsadi — Buxoro shahrining urbanistik rivojlanish jarayonlarini

[1] Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 10.03.2017-yildagi Buxoroga tashrifidagi nutqidan.

tarixiy bosqichlarda o‘rganish, shahar tuzilishidagi o‘zgarishlarni tahlil qilish va uning zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini aniqlashdan iborat.

Kurs ishining vazifalari. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Buxoro shahrining urbanistik shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini tarixiy manbalar asosida tahlil qilish;
2. Shahar tuzilishidagi asosiy me’moriy va rejalashtirish tamoyillarini aniqlash;
3. Sovet davri va mustaqillik yillarida Buxoro shahrida amalga oshirilgan urbanistik o‘zgarishlarni o‘rganish;
4. Zamonaviy Buxoro shahrining infratuzilmasi, transport tizimi va ijtimoiy xizmat sohalarini tahlil qilish;
5. Barqaror shahar rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Kurs ishining obyekti va predmeti. Tadqiqot obyekti: Buxoro shahrining tarixiy va zamonaviy shaharsozlik tizimi. Tadqiqot predmeti: Buxoro shahrining urbanistik rivojlanish jarayonlari, me’moriy-rejalashtirish xususiyatlari hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog‘liqligi.

Kurs ishining tuzilishi va hajmi. Kurs ishi kirish, ikkita bob, beshta paragraf, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I BOB. BUXORO SHAHRINING TARIXIY SHAKLLANISHI VA URBANISTIK RIVOJLANISHI

I.1-§. Buxoro shahri tarixi va shahar urbanizatsiyasi

Buxoro o‘zining 25 asrlik tarixi davomida jahon fani va madaniyatini rivojlantirishga, ayniqsa, Sharq madaniyatini taraqqiy ettirishga salmoqli hissa qo‘shgan ko‘hna shahardir. Shaharning tarixiy qismi 1993-yilda YUNESKO tomonidan insoniyatning butundunyo tarixiy merosi shaharlari ro‘yxatiga kiritilgan. Buxoro o‘zining 400 dan ortiq me’moriy obidalari bilan Markaziy Osiyodagi eng katta muzey-shahar hisoblanadi.

Arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, Buxoroga miloddan avvalgi 1-ming yillik o‘rtalarida asos solingan. Ilk o‘rta asr Xitoy manbalarida shaharning nomi An, Ansi, Ango, Buxo, buku, Buxe, Buxaer, Buxola, Fuxo, Puxuala deb atalgan. Mutaxassislarning fikricha, bu atamalarning avvalgi uchtasi Buxoroning Xitoycha nomlari bo‘lib, qolgani “Buxoro” so‘zining Xitoy tilidagi talaffuzidir[2].

O‘rta asr arab manbalarida Buxoro Numijkat, Navmijkat, Bumichkat (Yangi Qo‘rg‘on), Al-Madina as-sufriya (Mis shahar), Madinat ut-tujjor (Savdogarlar shahri). Foxira (Faxr shahri) kabi nomlar bilan tilga olingan. Buxoro atamasi sanskritcha “vixara” so‘zining turk-mo‘g‘ulcha shakli - “buxor” (“ibodatxona”) dan kelib chiqqan deb tahlil qilingan. Keyingi tadqiqotlarda bu atama so‘g‘diycha “bug‘” yoki “bag‘”(“tangri”) hamda “oro” (“jamol”) so‘zlaridan iborat bo‘lib, “tangri jamoli”degan ma’noni anglatadi, degan fikrlar ham mavjud.

Narshaxiyning yozishicha - “Samarqand tomonida bir katta daryo borki, uni “Rudi mosaf” - “Mosaf daryosi” (Hozirgi

[2] Баракаев Ж., Ҳайдаров Й. Бухоро тарихи. Тошкент, 1981. – Б.24.

Zarafshon daryosi) deb aytaydilar. Bu daryoga koʻp suv yigʻilgan, u bir talay yerlarni yuvib-oʻpirib, koʻp loyqalarni surib kelgan va natijada, bu botqoqliklar toʻlib qolgan. Suv koʻp oqib kela berdi, loyqalarni Bitik (Chorjoʻy roʻparasidagi Amudaryo boʻyida joylashgan qishloq) va Forobgacha (Chorjoʻy yaqinidagi, Amudaryo sohilidagi shahar) surib keltira berdi. Soʻng suv toshib kelishi toʻxtadi. Buxoro oʻrnashgan joy asta-sekin toʻlib tekis yerga aylandi va shunday qilib, u katta daryo Soʻgʻd va bu loyqalar bilan toʻlgan mavze Buxoro boʻlib qoldi, har tomonidan odamlar yigʻilib, u joy obod boʻldi”.

Buxoro shahrining barpo boʻlishi Zarafshon vodiysining oʻzlashtirib obod etilishi hamda voha boʻylab urbanizastiyalashgan dehqonchilik, qishloqlar va istehkomsiz turar joylar, keyinroq esa koʻplab qasrlarning qad koʻtarishi bilan uzviy bogʻliq boʻlgan. Milodgacha boʻlgan V asr oxiri va IV asrlarda, ayniqsa III va II asrlarda bu jarayon keskin jadallashgan. Buxoro shahri yaqinidagi Taxtmachittepa va Talimurda partav yodgorliklaridan topilgan, miloddan av. IV - II asrlarga mansub Yunon-Baqtriya podshohi Evtidemning kumush tangalari hamda ularga taqlidan yasalgan va old tomoniga tojdor hukmdor, orqa tomonida esa otashkada tasviri tushirilgan kumush tangalarda maʼlum darajada oʻz ifodasini topgan. Hatto qadimgi Buxoro tojdorlari miloddan avvalgi II asrdayoq oʻz kumush tangalarini zarb etib chiqara boshlaganlar.

Er.av.II asrdan boshlab Buxoro vohasida boy dehqonlarga qarashli mustahkam uy joylar paydo boʻla boshlagan. Bu davrda vohada qishloq jamoasiga tegishli “dehqon”lar tomonidan sugʻoriladigan yerlar va oʻtloqlar egallanib boshlagan. Kichik-kichik davlatlar paydo boʻlib, oʻzlarini turli nomlar bilan atagan

podshohlar tomonidan boshqarilgan. Masalan, Buxoroda-buxoroxudotlar, Buxoro vohasining shimolida joylashgan Vardonzeda – vardonxudatlar, so‘g‘dda – Ixshidlar, Ustrushonada – afshinlar deb atashgan.

Buxoroxudot - (Buxoro va fors “xudo” - tangri, ega, hokim ma’nolarini anglatadi. Buxoroga islom kirib kelgach arablar uni Buxorxudat deb o‘z tillariga moslab olganlar. Buxorxudat atamasi dastlab Buxorxudo shaklida bo‘lgan.

Buxoroxudotlar VI-VIII asrlar mobaynida Buxoroni idora qilib, hududi hozirgi Buxoro, Vobkent, Kogon, Romitan, Jondor va Qorako‘l tumani yerlaridan iborat bo‘lgan[3].

Arablarning Buxoro muzofotiga kirib kelishi 673-yilning kuzida Xalifa Muoviya (661-680 y.y.) farmoni bilan Ubaydulloh ibn Ziyodning Amudaryodan kechib o‘tishidan boshlandi. Dastlab Poykand va Romitanni egallab, Buxoro shahrini qamalga oladi.

707-yilda Qutayba katta qo‘shin bilan Amudaryodan o‘tib, Buxoro vohasiga bostirib keladi. Arab qo‘shinlari dastlab eng qadimiy va obod shaharlardan bo‘lgan Poykandni qamalga oldilar.

Somoniylar xonadonining vakili Samarqand hukmdori somoniy Nasr ibn Ahmad 874-yilda ukasi Ismoilni Buxoroga noib qilib yuboradi. Buxoro IX-X asrlarda Somoniylar, X asr oxirida Qoraxoniylar boshqaruvida bo‘lgan.

1220-yil fevralida mo‘g‘ullar Buxoroni egalladilar. Go‘rxon boshchiligida 12 kun davomida mo‘g‘ullarga qarshilik ko‘rsatdi. Qal’a ichidagi chuqurlar odam va hayvon mayitlariga to‘lib, qahramonlar o‘z jonlarini fido qilgandan keyingina Ark zabt etildi. Nayob qo‘lyozma asarlar, muqaddas kitoblar yirtildi. Ulamo va shayxlar e’tiborli mo‘g‘ul jangchilariga xizmatkor qilib

[3] Асқаров А. Бухоронинг ибтидоий тарихидан лавҳалар. Тошкент, 1973. – Б.87.

berilgan. Masjidlarda sharobxoʻrlik qilinib, moʻgʻullar ashula aytayotgan paytda ulamolar va shayxlarni otxonalarda otlarni qoʻriqlash uchun qoʻydilar.

Xullas sanʼati, ilm-maʼrifati yuksak boʻlgan Buxoro aholisi xoʻrlandi va masxara qilindi. Istilochilar Buxorodan gʻoyatda koʻp asir olib qaytdilar. Asirlarning koʻpchiligi hunarmandlar boʻlib, moʻgʻullar ulardan turli xil hunarmandchilik buyumlari, qurol-yarogʻ, asbob-uskunalar, zeb-ziynatlar yasab beradigan ishchi kuchi sifatida foydalanganlar.

1238-yilda Buxorodan 3 farsax (18-20 km) narida Torob qishlogʻida (hozirgi Jondor tumani hududi) boshlanadi. Qoʻzgʻolonga Toroblik gʻalvir yasovchi Mahmud boshchilik qiladi va tarixda u Maxmud Torobiy qoʻzgʻoloni nomi bilan mashhur. Tarixchi Juvayniyning yozishicha, M.Torobiy ularni kurashga chaqirdi. Qoʻzgʻolon shiddad bilan avjiga chiqdiki, M.Torobiy qoʻshinlarining Karmana atrofida moʻgʻullar va Buxorodan qochib ketgan amaldorlar qoʻshinlaridan engilib, M.Torobiy va Shamsuddin Maxbubiylar halok boʻlgandan soʻnggina qoʻzgʻolon bostiriladi.

1316-yilning sentyabr-oktabr oylarida Erondan kelgan moʻgʻullar Chigʻatoy shahzodasi Yasovur bilan birgalikda Buxoro va boshqa shaharlarni yana talab, aholisini zoʻrlab olib ketdilar.

Arab Sayyohi ibn Batutta 1333-yilda Buxoroda boʻlib, koʻpgina bozor va maschitlar xaroba holda turganligini bayon etgan.

Moʻgʻullar istibdodiga, chingiziy shahzodalarning oʻzaro urushlari, moʻgʻullarning Movarounnahrga tinimsiz bosqinlari,

shahar va qishloqlarni talon-taroj qilib, aholiga cheksiz qilingan shafqatsizliklarga sohibqiron Amir Temur chek qo‘ygan[4].

[4] Норқулов Н. Темурийлар даври маданияти тарихидан лавҳалар. Урганч: Хоразм, 1996. – Б.78.

I.2-§. Somoniylar, Amir Temur va temuriylar davrida Buxoro

Samarqand hukmdori somoniy Nasr ibn Ahmad 874-yilda ukasi Ismoilni Buxoroga noib qilib yuboradi. Ismoil Somoniy o‘ziga berilgan viloyatni mumkin qadar mustaqil idora qilishga intildi. 888-yildagi jangda Nasr qo‘shinlarini tor-mor keltirib, butun Movarounnahrni birlashtirdi va uning yagona hukmdori bo‘lib oldi. 892-yilda Nasr ibn Ahmad vafotidan so‘ng Ismoil davlat poytaxtini Buxoroga ko‘chirdi va 907-yilgacha hukmronlik qildi.

Ismoil Somoniy 893-yilda ko‘chmanchi dashtliklarni yengib ularning uzluksiz bosqinlariga chek qo‘ydi. Natijada aholi yuzlab kilometrga cho‘zilgan mudofaa devorlari va son-sanoqsiz qal’alarni bino qilish, ularni ta’mirlashdek mashaqqatli ishlardan ozod bo‘ldi. 900-yilda Safforiy Amr ibn Laysni engib Ismoil Xurosonni o‘ziga bo‘ysundirdi. 901-yilda Tabariston ham Ismoil Somoniyni hukmdor sifatida tan oldi. Somoniylar davlati ulkan davlatga aylanganligi natijasida Arab xalifaligi istibdodidan xalos bo‘ldi. Natijada Buxoro mustaqil davlat poytaxtiga aylandi.

907-yilda Ismoil Somoniy vafotidan so‘ng Somoniylar avlodlari 999-yilgacha, Buxoroda hukmronlik qildilar.

Somoniylar davlatining tashkil topishi siyosiy barqarorlik va iqtisodiy yuksalish, madaniy hayotning ravnaqiga imkon berdi. Bu davrda Buxoro shahri madaniy jihatdan yuksaldi. Poytaxtda amir saroyida ko‘plab sohalarga oid qo‘lyozma kitoblar saqlanadigan kattagina kutubxona barpo etildi.

Somoniy amirlarining aksariyati adabiyot, she’riyat, ilm-fan, san’at va me’morchilikka homiylik qiladilar. Bu davrda Buxoroda

ayniqsa she’riyat ravnaq topadi. Uning rivojiga Abu Abduloh Rudakiy (860-941y.y.)ning xizmatlari benihoya kattadir. Rudakiy davrida Buxoroda 60 dan ortiq shoirlar yashagan bo‘lib, ular orasida Abu Mansur Daqiqiy, Julobi Buxoriy, Ravnaqi Buxori, Shokiri Buxoriy, Abulqosim Firdavsiy, Abulxasan Balxiy va ko‘pgina boshqa shoirlarning ijodi jahon madaniyati durdonalari qatoridan munosib o‘rin egallagan.

Somoniylar davlatining qaror topishi va uning ravnaqida islom ruhoniylarining hissasi katta bo‘ldi. Shu boisdan ularning obro‘yi oshib, poytaxt Buxoro Sharqda islom dinining eng nufuzli markazlarining biriga aylandi. Buxorodagi madrasalarda diniy ilmlar bilan birga dunyoviy bilimlar ham o‘qitilgan. Shaharda alohida kitobfurushlik rastalari bo‘lib, ularda turli tillarda yozilgan qo‘lyozma kitoblar sotilgan.

Shahar madaniyatining ravnaqi, jamiyatdagi ziyolilar davrasining kengayishi Somoniy hukmdorlarini ilm ahli bilan yaqinlashtirdi. Hukmdorlar o‘z saroylarida ijod qilayotgan mashhur olim, shoir va san’atkorlar, shuningdek kutubxonalarida to‘plangan nodir kitoblar bilan mag‘rurlanar edilar.

Somoniylar davrida me’morchilik va san’at yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarildi. Hashamatli binolar qad ko‘tarib shahar kengaydi. Qurilish texnikasi takomillashdi. Buxoro shahri va uning atrofidagi yerlarni sun’iy sug‘orish uchun Zarafshon daryosi yetarli bo‘lgan. Hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlangan. Tavovis, Numijkat, Zandana, Mug‘kon, Xujoda, Boykand, Farabr, Karminiya, Xudimankan, Xarg‘onkat, Madyomijkat va boshqa shaharlarning bir qismi Buxoro devorlaridan ichkarisida, bir qismi esa tashqarisida joylashgan.

IX-X asrlarda Buxoro vohasi Somoniy hukmdorligida ilm-fan, madaniyat markazi sifatida butun Movarounnahr va Xurosanga mashhur boʻldi. Ayni shu davrda XI asr Buxoro islom dini va madaniyati yuksalib, mashhur faqihshunos olim Abu Hafs Kabir Buxoriyning xizmatlari evaziga Buxoroga “Qubbat ul-Islom”-“Islom dinining gumbazi” degan nim berilgan.

Movarounnahr va Xurosonga mashhur boʻlgan Buxoroga 1220-yil Chingizxon qoʻshinlari bostirib kirdi. Manbalarda qayd etilishicha shaharga kirgandan soʻng “Chingizning koʻzi dastlab ulugʻ Somoniy tarafidan muhtasham bezaklar bilan qurdirilgan jome masjidiga tushdi. U oʻgʻli Toʻli bilan otdan tushmay masjidga kirdi. Minbar oldiga borib toʻxtadi. Chingiz soʻradi: Bu sultonning oʻz saroyimi? Unga. Bu “Baytulloh” deb javob berildi. Shundan soʻng otdan tushdi. Minbarning bir necha zinasiga koʻtarildida, orqasida turgan moʻgʻullarga qichqirdi.“Oʻtloq oʻrildi, otlaringizga yem beringiz. Bu talon-tarojga ruxsat ishorasi edi. Barcha uylar vayron qilindi, hamma sandiqlar buzildi. Behisob xazinalar talandi. Kitoblar yirtilib, hayvonlar oyogʻi ostiga somondek sochildi. Muqaddas kitoblar saqlangan sandiqlarni otlarga oxur sifatida ishlatdilar”.

Amir Husayn va Amir Temur birgalikda moʻgullarga qarshi kurashdilar. Oʻzlarining markazlashgan davlatini barpo etish uchun harakat qildilar. 1366-1370-yillarda Movarounnahr hukmdori boʻlish uchun Amir Husayn va Amir Temur oʻrtasida kurash kuchayib, Qarshi va Buxoroni egallashga bir necha bor harakat qilindi. 1366-yil Amir Temur Qarshida qishlaydi va Mahmudshoh Buxoriyni Buxoroning devonga berishi lozim boʻlgan soligʻini yigʻib kelishni amr qiladi. Amir Temur 1366-

1370-yillarda Buxoroning iqtisodiy jihatlaridan va koʻp bora Buxoroninng boshqaruv ishlaridan xabordor edi[5].

1370-yil Amir Temur rasman Movarounnahr hukmdori boʻldi. Xorazm hukmdorlarining Buxoro va uning atrofidagi yerlarga toʻxtovsiz hujumi Xorazmga yurish qilishga undadi.

1381-1382-yillarni qishni Buxoroda oʻtkazgan. Ammo bu yerda dam olishning imkoni boʻlmadi, oʻsha kunlari uning suyukli qizi Ogʻabegim olamdan koʻz yumgan edi. Bir necha kun qaygʻuga botgan Amir Temur yana davlat ishlariga qaytdi. 1388-yili Toʻxtamishxon qushinlari Buxoro viloyatini va atrofdagi qishloqlarni egalladi. Buxoro amirlari shaharni himoya qildilar. Xalq orasida Amir Temurning qaytib kelayotgani toʻgʻrisida xabar tarqalib, dushman askarlari bu yerda tuxtab turishni maqul koʻrmay, ortlariga qaytib ketishgan. 1389-yil Moʻgʻiliston yurishidan gʻalaba bilan qaytib kelgach katta toʻy beradi va qishda Buxoroga boradi. Gazli yoʻlidagi qishloqda ov tashkil etadi. Qish boʻyi Buxoroda qoladi.

1392-yil 7-iyunda Amir Temur Eronni fath etish uchun yurishga otlanib Buxoroga keladi va bu erda ob-havo taʼsir qilib salomatligi oʻzgaradi. Samarqanddan oʻgillari va xotinlarini Buxoroga chaqirishadi. Tezda Saroy Mulk xonim, Tuman ogʻo, Sulton Baxt begim va farzandlari yetib kelgan. Amir Temurni fors tabiblari davolaydi va xalqqa qoʻy soʻyib xayr ehson qildilar.1392-yil iyulda jang safariga joʻnab ketadi. Amir Temur oʻzinig 35 yillik hukmronligi davrida mamlakat tinchligi va osoyishtaligi uchun harakat qilgan[6].

Amir Temur va temuriylar davrida Buxoro madrasalarida oylik ish haqlarini belgilab bordilar. Amir Temurning tashabbusi

[5] Рempель Л.И. Далёкое и близкое Бухарские записи. Ташкент, 1962. С.58.

[6] Axmedov L. Buxoro xonligi va shaharlik jamiyat. – Toshkent, 2004. – B.18.

bilan masjidu madrasalar va kasalxonalarga hayr ehsonlar uyushtirganlar. Nemis Tarixchisi F.Shlosser (1770-1861) Temur haqida shunday degan: ”Umrini yurishlarda oʻtkazgan Temur tez-tez Buxoroga kelib turgan”.

Amir Temur davrida Najmiddin Kubroning shogirdi, mashhur avliyo Shoabdurahmon Vali sharafiga Qorakoʻlda masjid barpo etilgan. Sayyid Mir Kulol Buxoriyga Kogonda qabri ustiga maqbara oʻrnatilgan. 1380-yil Chashmayi Ayub yodgorligida meʼmoriy bino barpo etildi. Xorazmga yurishi vaqtida mashhur ustalarni Buxoroga olib kelib maqbaralarni taʼmirlashda ishlatgan. Minorai Kalon yonida Bayonqulixon maqbarasini qurilishga farmon bergan. Amir Temur har yurish safariga chiqishidan oldin Buxoroga tashrif buyrgan va soʻngra safarga otlangan.

Mirzo Ulugʻbek davrida 1417-yil Buxoroda, 1433-yil Gʻijduvonda madrasa qurildi. Ozi bir necha bor Buxoroga kelgan. Uning koʻrsatmasi bilan ilmu-toliblarga xayr-ehson qilingan. Buxoro shahridagi madrasaning darvozasiga Ulugʻbekning koʻrsatmasiga koʻra, “Bilim olish har bir musulmon ayol va erkakning burchidir” deb yozib qoʻyilgan.

Amir Temur va temuriylar davrida Buxoroda Buyuk ipak yoli uchun shart-sharoitlar yaratilgan. Hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlandi. Suv tanqis bolgan joylarga suv chiqarildi. Masjid va madrasalar taʼmirlandi. Aholi savdo karvonlarida savdo shahobchalarida ish bilan taʼminlandi. XV asrning oxirlarida temuriylar oʻrtasidagi toj-taxt uchun kurash avjiga chiqdi Hirot va Samarqand oʻrtasidagi tortishuvda Buxoro ham chetda qolmadi.

II BOB. KEYINGI DAVLARDA BUXORO SHAHRI URBANIZATSIYASI

II.1-§. XVI-XIX asrlarda Buxoro shaharlari urbanizatsiyasi

Buxoro XVI asrlarda: Shayboniyxon Buxoroni egalladi, boʻysunmaganlarni qatl ettirdi, mol mulkini musodara qildi va bor kuchini Samarqandga qaratdi.

Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asarida Qorakoʻlda koʻtarilgan qoʻzgʻolon Shayboniyxon lashkari uchun kutilmagan vaziyatni tugʻdirdi. 1501-yil 3 oylik qamaldan keyin Qorakoʻl egallab olindi. Koʻp oʻtmay yana qoʻzgʻolon koʻtarildi. Qal’a himoya qilindi. Shayboniyxon davridagi Qorakoʻl fojiasi mudhish voqea boʻldi.

1508-yil Shayboniyxon Buxoroga qaytib keldi.1509-yil Eronga yurishga tayyorgarlik koʻrdi. 1510-yil Marvning Mahmudobod qishlogʻida jangda vafot etdi. Uning avlodlari turli tomonda tarqoq harakat qila boshladilar. Azamat Ziyoning yozishicha Shayboniyxondan keyin Ubaydulloxon 36 yil hukmdorlik qildi. Uning poytaxti boʻlgan Buxoro olimu fuzalolar toʻplanadigan joy boʻlib, siyosat yoʻlida gʻoyat mashhur boʻlgan.

Abdullaxon davrida Buxoroda ustaxonalar, savdo doʻkonlari, tegirmonlar va boshqa korxonalar koʻp boʻlib aholi turmush tarzi yaxshilandi. Xoʻjalikni izga solish uchun savdo-sotiqni rivojlantirish maqsadida 1507-,1525-,1583-yillarda pul islohotlari amalga oshirilgan. Bu davrda dinor deb atalgan mis tangalar va ogirligi 3 grammga teng kumush tangalar muomalada boʻlgan. Ingliz sayyohi Antonni Jenkinson Buxoroda tilla tanglar

muomalada bo‘lmaganligini, bu yerda asosan mis va kumush tangalar ishlatilishini aytgan[7].

XVI asrda Buxoroda g‘allaning 10 xil turi ekilgan. Omoch, ketmon, o‘roq, temir va yog‘och belkurakdan ish quroli sifatida foydalangan. Hunarmandchilikning 60 dan ortiq turi bilan shug‘ullanishgan. Misgarlar ko‘za, lagan, qozon va butun bir qo‘y sig‘adigan katta patnislar yasagan. Suv tegirmoni va moy juvozlar ko‘p bo‘lgan.

1572-yil avgust-sentyabr oylarida Abdullaxon farmonida, “molu jihot, ixrojot, koh, tarh, sobon singari oldi-sotiqlar” xususida ma’lumotlar bor. Bular quyidagilar:

Muqarririy - aniq va belgilab qo‘yilgan soliqlar;

Ixrojot - davlat idorasi xizmatchilarining xarajatlarini to‘plash uchun aholidan to‘planadigan soliq;

Mirobona - miroblarning maoshi uchun xalqdan yig‘iladigan soliq;

Koh - qo‘shinning ehtiyoji uchun xalqdan to‘planadigan yemxashak yig‘imi;

Tarh - majburiyat (bunda raiat- aholi davlat omboridan biror narsa, ko‘pincha don-dun sotib olganda qimmat narxlar bilan olib, sotganda arzon narxda sotishga majbo‘r bo‘lgan);

Sobun (saban) - yer haydashga kirishilganda va hosil yig‘ishtirib olinganda o‘tkaziladigan marosim va uni o‘tkazish uchun aholidan to‘planadigan yig‘im.

Shayboniylar davrida 40 dan ortiq soliq va jarimalar mavjud bo‘lib, xiroj solig‘i mahsulotning beshdan bir qismi miqdorida pul yoki mahsulot bilan olingan. Hunarmandlar va dukondorlar tamg‘a solig‘i to‘lagan.

[7] Aminov A. Markaziy Osiyo shaharsozligi tarixi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2010. – B.48.

Buxoroda Govkushon, Fatxulla Qushbegi, Mirakon, Xoja Muhammad Porso madrasalari va koʻplab binolar barpo boʻldi. Nurotada Oqchop qishlogʻida katta toʻgʻon qurildi. Qush madrasa Abdullaxon madrasasinig kutubxonasi juda boy boʻlib turli sohalarga doir kitoblar mavjud boʻlgan. Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” kabi tarixiy asari oʻzbek tiliga tarjima qilindi. Buxoro shahri yangi mudofa devoir bilan oʻrab olindi. Savod chiqarish uchun oʻqishga 6 yoshdan qabul qilinadigan boʻldi.

Buxoro XVII asrda: Darvishali Changiy - XVI asrda Hirotda toʻgʻilib, Buxoroda vafot etgan. U musiqashunos, hofiz va shoir. “Risolai musiqiy” asari mavjud.

Mavlono Nosiriy – XVI asrning oxiri XVII asr boshida Qorakoʻlda tugʻilgan Buxoroda yashab ijod qilgan va u Ashtarxoniy hukmdor Vali Muhammadga bagʻishlangan “Valinoma” dostonini yozgan bu asarlar bizgacha yetib kelgan asosiy manba hisoblanadi.

Mir Ahmad Buxoriyning yozishicha, Ubaydulloxon II hukmronligi davrida Buxoroda Mulla Sayid, Qosim Xoʻja degan shoirlar yashab ijod qilgan. Oʻz sheʼrlarida har -yili oʻtkaziladigan yangi -yil Navroʻz va qizil lolalar bayramlariga bagʻishlangan.

Bir qator adabiy-tarixiy asarlar yaratilgan. Jumladan Sayid Nasafiyning “Hayvonnoma”, Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma”, Abdurahmon Tolening “Abulfayzxon tarixi”, Muhammadamin ibn Muhammadzamon Buxoriyning “Muhit uttavorix” (“Tarixlar okeani” somoniylar va ashtarxoniylarga bagʻishlangan) Turdining “Subxonqulixon toʻgʻrisida hajviya ”asarlari. Turdiy, asli ismi va taxallusi Farogʻiydir. Buxoroda (XVII asr) tavallud topib 1700--yilda Xoʻjadnda vafot etgan,

Buxoro madrasalarida ta’lim olgan. Abulfayzxon davrida saroyning amaldorlaridan bo‘lgan, Subxonquloxon taxtga chiqgach saroydan chetlashtirilgan.

Ashtarxoniylar davrida Buxoro shahrining ko‘rinishini Florio Beneveni quyidagicha tasvirlagan: “Yarim qulay deb turgan baland ko‘tarma devor bilan o‘rab olingan, unda 15 ming paxsadan qurilgan xonadon va masjidlar g‘isht devorlar bilan o‘ralgan”.

Subxonqulixon davrida Buxoroda tibbiyot ilmi ancha rivojlandi. Maxsus shifoxona va tibbiyot kutubxonasi qurdirdi.

Buxoroda bir qator madrasalar bino qilindi: Abdulazizxon madrasasi 96 hujradan iborat, 1654-1655-yilda Abdulazizxon ibn Nasr Muhammadxon tomonidan qurdirilgan. Nodir Devonbegi madrasasi Imomqulixonning vaziri Nodir Devonbegi qurdirgan (1622-1623).

XVII asrlarda Buxoro maktab va madrasalarida asosan diniy va qisman adabiyot o‘qitilardi. Navoiyning she’rlari, Fuzuliy, Hofiz va Bedilning asarlaridan parchalar o‘rganilgan.

Buxoroning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini dehqonchilik, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo tashkil etgan. Dehqonchilikda sug‘orish tarmoqlari Zarafshon va Amudaryodan chiqarilgan[8].

Xonlikda yer egaligida dehqonlar yerni ijaraga olib ishlaganlar. Hunarmandchilikning ko‘p turlari bo‘lib tikuvchilik, misgarlik va zargarlik. Hatto zargarlik buyumlari chetga ham chiqarilgan. Manbalarda qayd etilishicha, Sibir shaharlarida doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi buxorolik savdogarlarning rastalari bo‘lgan.

[8] Баракаев Ж., Ҳайдаров Й. Бухоро тарихи. Тошкент, 1981. – Б.35.

Buxoroda bo‘lgan ruhoniy Xrisanf shunday deb yozadi: “Buxoro boy mamlakat, unda ko‘plab savdogarlar va son-sanoqsiz boylikka ega bo‘lgan boshqa darajadagi kishilar borki, ular kumush va oltinlarning, javohir va qimmatbaho toshlarning sohibidir”.

Mahmud ibn Valining ko‘rsatishicha, Buxoro shahar hayoti 1630-1640 -yillarda 10 ta tumanga bo‘lingan: 1) G‘ijduvon (oldingi nomi Xarqona); 2) Vobkent (oldingi nomi Vobkana); 3) Farob (oldingi nomi Farabr); 4) Rudi shahr (Xarqonrud); 5) Komi Abu Muslim (Vag‘onze); 6) Shopurkom; 7) Romiton (oldingi nomi Somjana); 8) Sultonobod; 9) Zandani; 10) Xayrobod (hozirgi Jondor). Qorako‘l bu paytda viloyat maqomida bo‘lgan. Viloyatlarni hokim (bek)lar, tumanlarni esa hokimlar boshqargan.

Ashtarxoniylar davrida ichki vaziyat nisbatan barqaror bo‘ldi, o‘zaro feodal urushlar davom etdi. Bir tomondan Eron, ikkinchi tomondan Xiva xonligi bilan munosabatlar markaziy hokimiyatni zaiflashtirdi, bu albatta aholi turmush tarziga ta’sir o‘tkazardi.

Xonlikning iqtisodiy ahvoli ancha yomonlashdi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan Buxoroda Imomqulixon, Subxonqulixon va Ubaydulloxon davrida obodonchilikka, me’moriy va jamoatchilik binolari qurilishiga, chorbog‘lar barpo etilishiga e’tibor berilgan.

XIX asr oxiri Buxoro amirligi hayotida burilishli davrlardan biri bo‘lib,bu davr shaharning iqtisodiy, siyosiy va madaniy qiyofasini sezilarli darajada o‘zgartirdi. 1868-yildan boshlab Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoga kengayishi Buxoro amirligining siyosiy suverenitetiga raxna solgan bo‘lsa-da, Buxoro rasmiy ravishda mustaqil davlat maqomini saqlab qoldi. Ammo iqtisodiy va diplomatik jihatdan u Rossiyaga tobe holga

kelgan edi. Aynan shunday tarixiy sharoitda Buxoro shahri ichki ijtimoiy hayotida yangi shakllanishlarni boshdan kechira boshladi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro shahri viloyat markazi sifatida mintaqaning iqtisodiy markazlaridan biri bo‘lib qolgan. Shahar karvon savdosi va xalqaro bozor funtsiyasini bajargan. Buxorolik savdogarlar Hindiston, Eron, Rossiya, Xitoy va Afg‘onistonga mahsulot olib chiqqanlar. Shahar ichidagi to‘rtta yirik bozor(Ko‘kaldosh bozori,Shayxlar bozori,Chorsu bozori va Ko‘hna Ark atrofidagi bozorlar) markaziy iqtisodiy markazlar edi. Rossiyadan keltirilgan sanoat mahsulotlari ichki bozorni ham shakllantira boshlagan.

Buxoro hunarmandchiligi shaharning iqtisodiy asoslaridan biri edi. XIX asr oxiri bo‘yicha charmsozlar, zargarlar, kulollar, misgarlik ustalari faoliyat yuritgan. Har bir kasbning qofili (usta boshlig‘i) bo‘lgan va bu tartib ustoz-shogird tizimini tashkil qilgan. Madrasalar va bozorlarga yaqin joylarda faoliyat yuritgan hunarmandlar shaharlik sinfning ajralmas qismi bo‘lgan. Buxoro bu davrda hali ham musulmon dunyosining muhim ilm-fan va diniy ta’lim markazi bo‘lib qolayotgan edi. Bu yerda 300 dan ortiq madrasalar faoliyat ko‘rsatgan. Mir Arab, Ko'kaldosh, Abdulazizxon, Modari Jom kabi mashhur madrasalarda Movarounnahr bo‘ylab kelgan talabalar ta’lim olgan. Shu bilan birga, bu davrda jadidchilik harakati kuchayib, eski ta’lim tizimiga muqobil sifatida yangi usuldagi maktablar ochila boshlagan. XIX asr oxirida Buxoro Rossiyaga qaram protektorat holatida edi. Rossiya imperiyasi o‘z konsulliklari orqali Buxorodagi iqtisodiy va siyosiy hayotga bevosita aralashgan. Temiryo‘l (Kogon orqali) kirib kelgach, Buxoroning tashqi savdo

va logistik ahamiyati oshdi, ammo ichki siyosiy tuzum konservativligicha qoldi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro jamiyati qatlamli tuzilishga ega edi. Shahar aholisi asosan uch asosiy qatlamga bo‘linardi: diniy va ma’muriy elita (ulamo va amaldorlar), savdogar va hunarmandlar sinfi, hamda pastki qatlam–mehnatkashlar va xizmatkorlar. Buxoroda hukmron guruhlar siyosiy va iqtisodiy ustunlikni saqlab qolgan bo‘lsalar-da, savdo aloqalari va tashqi iqtisodiy ta’sirlar natijasida hunarmand va savdogarlar qatlamining nufuzi ortgan. Ayniqsa, jadidlar orasidan chiqqan savdogar oilalari yangicha fikr va turmush tarzini yoyishda muhim rol o‘ynagan. Mazkur davrda Buxorodagi ayollar ijtimoiy hayotda nisbatan cheklangan rolga ega bo‘lsalar-da, oilaviy va ma’naviy muhitda ularning ta’siri katta edi. Ayollar asosan uy-ro‘zg‘or ishlari, gilam to‘qish, tikuvchilik va hunar asosida faoliyat yuritgan. Ba’zi yirik savdogar oilalarida ayollar madrasalarga yoki diniy saboqlarga yashirin tarzda qatnashgan. Jadidchilik harakati davrida esa ayollarning ta’lim olishi g‘oyasi ilgari surilib, birinchi xotin-qizlar uchun mo‘ljallangan yangi usul maktablari ochila boshlagan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro shahri o‘zining me’moriy qiyofasini saqlagan holda ayrim yangilanishlarni ham boshdan kechirdi. Ko‘hna Ark, Minorai Kalon, Labi Hovuz atrofidagi me’moriy ansambllar saqlanib qolgan bo‘lsa-da, yangi turdagi binolar (masalan, rus savdogarlari uchun omborlar, temiryo‘l bekatlari yaqinida logistika inshootlari) barpo etildi. Bunday obyektlar ko‘proq Kogon atrofida, Rossiya imperiyasi bilan chegaradosh hududlarda qurilgan bo‘lib, Buxoro shahri bilan bevosita bog‘langan iqtisodiy zonani hosil qilgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxorodagi shaharlik hayoti an’anaviy tuzum asosida shakllangan bo‘lib, iqtisodiy hayot asosan bozorlar, hunarmandchilik va karvonsaroylar faoliyati bilan bog‘liq edi. Aholi turmushi diniy qadriyatlar, mahalliy urf-odatlar va ijtimoiy tartiblar doirasida kechgan. Bu davrda madrasa va masjidlar shahar hayotining markazida turar, ilm-fan va diniy ma’rifat asosiy yo‘nalish bo‘lib qolgan. Biroq bu davr Buxoro uchun faqat barqarorlik davri emas, balki tashqi bosimlar va ichki o‘zgarishlar davri ham edi. Rossiya imperiyasi bilan savdo-iqtisodiy aloqalarning kuchayishi,yangi transport yo‘llarining ochilishi va texnik vositalarning kirib kelishi natijasida shaharda asta-sekin modernizatsiya jarayonlari ko‘zga tashlana boshladi. Shunday qilib, shaharlik hayoti yangi va eski unsurlar to‘qnashgan murakkab bosqichga o‘tdi.

II.2-§. 1920-1990 yillarda Buxoro shaharsozligi: Taraqqiyot va tanazzul

Qadimdan yirik tijorat markazlaridan bo‘lgan Buxoroning ijtimoiy-madaniy hayoti sovet hukumati davrida ma’lum darajada o‘ziga xos qolip va andozalarga solindi. 1920-yil ыentyabrda qizil armiya tomonidan Buxoro shahri egallanib, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilganligidan so‘ng F.Xo‘jayev rahbarligidagi hukumat vayron bo‘lgan shaharni qayta tiklashga kirishadi. Dastlab Buxoro ko‘chalariga tosh yotqizish, transport yo‘llarini tartibga keltirish borasida bir qator tadbirlarni amalga oshiradi[9].

Shahar ko‘chalarini yoritish va aholini elektr chiroqlari bilan ta’minlash maqsadida Buxoro shahrida 1922-yilda elektr stansiyasi qurilishi boshlangan. Kerakli jihozlar Moskva, Xarkov,

[9] Rahmonov K. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tarixi matbuot sahifalarida. Toshkent: Abu Matbuot-konsalt, 2012. - B. 78.

Tbilisidan olib kelinib, loyihaga Gegeneyshvili rahbarlik qilgan. 1923-yil kuzida Buxoro shahridagi Registon maydonida elektr stansiyasi o‘rnatilgan va shu yilning 12-dekabridan aholi elektr chiroqlaridan foydalana boshlagan.

BXSR hukumati davrida ijtimoiy infratuzilmaga alohida e’tibor qaratilib, zamonaviy usuldagi ta’lim va tibbiyot muassasalari bunyod etilgan. Jumdadan, Buxoro shahrida 1920-1921-yillarda 17 ta boshlang‘ich maktablar, 2 ta qizlar maktabi, 3 ta yetimxona, 1 ta hunar maktabi, 1 ta ustaxona, 1 ta musiqa maktabi, 1 ta siyosiy maktab faoliyati yo‘lga qo‘yilgan[10].

Buxoro hukumati teatr, kutubxona, muzey, klub, choyxona kabi madaniy muassasalarni qurilish ishlarini olib borgan. Jumladan, 1921-yilda “Yetimxon” teatr binosi qurilib, Registon maydonida yozgi teatr tomoshalari tashkil qilingan, o‘sha yili Amir Olimxon madrasasida Abu Ali ibn Sino nomli kutubxona o‘z faoliyatini boshlaydi, 1922-yilning 8-noyabrida Sitorai Moxi Xossada muzey ochiladi va unga “Qori Yo‘ldosh muzaxonasi” nomi berilgan. 1923-yilda radio stansiyasi qurilib, radioeshittirishlar olib borilgan. Aholini madaniy hayotga kengroq tortish uchun 1923-1924-yillarda 5 ta klub va 10 ta qizil choyxona qurilib ishga tushirilgan. Shaharda ijtimoiy infratuzilmalarning ko‘payishi shahar qiyofasini o‘zgartirib borsada, amalga oshirilayotgan “islohotlar” sovet hukumati g‘oyalarining aholi o‘rtasida kengroq yoyilishiga qaratilgan edi[11].

Buxoro Respublikasi tashkil etilgan kunidan boshlab, sog‘liqni saqlash tizimi eng muhim soha sifatida qaraldi va mavjud muammolarni bartataf etishga qaratilgan islohotlar olib

[10] Junayev Z. Buxoro Xalq Sovet Respublikasida moliya sohasidagi ahvol va banklar faoliyati // O‘tmishga nazar. 2020. Maxsus son. - B. 149-150.

[11] “Buxoro axbori”, 1921-yil 13-yanvar; “Ozod Buxoro”, 1923-yil 17-noyabr.

borildi. 1920-yil 31-oktyabrda BXSR hukumati huzurida Sog‘likni Saqlash nozirligi tashkil etilgan. Nozirlikning “Dorishunoslik”, “Sanitar–epidemologik”, “Davolanuvchi” bo‘limlari bo‘lib, birinchi nozir etib, Germaniyada o‘z malakasini oshirib kelgan Abdulahad Burhonov tayinlangan. Nozirlik tashabbusi bilan BXSR poytaxtidagi 100 o‘rinli shahar shifoxonasini 200 o‘rinli qilib kengaytirish ishlari olib borilgan. Shifoxonaning old qismiga 3 ta yangi bino qurilgan va ta’mirga muhtoj tibbiy muassasalarda ta’mirlash ishlari olib borilgan. Bu tadbirlar uchun davlat tomonidan 200 ming oltin ajratilgan. Tibbiy jihozlar Berlin va Moskva shaharlaridan keltirilib, shifoxonada rengen qiluvchi, ko‘z kasalliklarini davolovchi va boshqa yangi tibbiy xonalar tashkil qilingan. 1924 yilga kelib BXSRda 5 ta kasalxona, 2 ta ambulatoriya va 8 ta feldsherlik punkti faoliyat ko‘rsatgan[12].

BXSR hukumati ishlab chiqarish korxonalari va savdo inshootlari barpo etish hamda faoliyatini tashkil etishga alohida e’tibor qaratdi. 1920-yili Buxoro shahrida Markaziy xalq banki, uning viloyatlar va shaharlardagi sho‘balari, 1922-yili elektrostansiya, gugurt va sovun zavodlari, 1923-yili Buxoro tovar-fond birjasi tashkil qilingan. 1923-yilda Buxoroda 7 ta paxtani qayta ishlash, 3 ta yog‘ ishlab chiqarish, 4 ta teriga ishlov beruvchi korxonalar faoliyat ko‘rsatgan.

1933-yilda shahar markazida 50 gektar maydonni egallagan S.Kirov nomidagi madaniyat va istirohat bog‘i tashkil etiladi. Unda 1 ta kinoteatr, ko‘rgazmalar maydonchasi, ko‘l-hovuz, raqs tushish maydoni, shaxmat va billiard zali mavjud bo‘lgan.

Shahar infratuzilmasi tarkibidagi moddiy fondlar orasida turar joy qurilishi alohida ahamiyat kasb etgan. Xususan, Ikkinchi jahon urushidan keyingi dastlabki yillarda shahar

[12] Mo‘minov H., Muzaffarov A. Buxoro oblasti. Toshkent: O‘zbekiston, 1976. - B. 65.

xo‘jaligining barcha sohalari qatorida uy-joy qurilishi va mavjud binolarni ta’mirlashga e’tibor qaratilgan. 1948-yilda turar joylarni ta’mirlash rejasi Buxoroda 69 % bajarilgan bo‘lib, 1956-yilda Buxoro shahrida 33 ta uy-joy, 75 kishiga mo‘ljallangan mehmonxona, hammom, maktab kabi binolar qurib topshirilgan[13].

Sovet hukumati tomonidan 1957-yilda “SSSRda turar-joy qurilishini rivojlantirish to‘g‘risida”gi Qaror qabul qilingan va 10-12 yil ichida uy-joy muammosini butunlay bartaraf etish belgilangan. 1958-yilda uy-joy fondi 368 ming km kvadratni tashkil etgan bo‘lsa, 1967-yilga kelib 510 ming km kvadratga yetgan. Aholini turar joylar bilan to‘liq ta’minlash zarurligi sababli respublikaning boshqa shaharlaridagi singari Buxoroda ham uy-joy qurish kooperativlari tashkil etilgan.

Sovet davrida amalga oshirilgan tadbirlardan biri - ishchilarni tekin uy-joy bilan ta’minlash bo‘lib, bu ishchilar “qo‘nimsizligi”ning oldini olish, ularni korxonaga “bog‘lash”, ishlab chiqarishni ishchi kadrlar bilan ta’minlash maqsadlarini ko‘zda tutgan. Ishdan o‘z ixtiyori bilan bo‘shagan yoki bo‘shatilgan, sudlanganlardan uy-joylari qaytarib olingan. Ishchi-xizmatchilar uchun turar joylarni korxonalarning o‘zi qurib topshirishi lozim bo‘lgan. Bundan tashqari, uy-joylarni zavod va fabrika ishchilar kuchi bilan qurish amaliyoti keng qo‘llanilgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi dastlabki yillarda shaharlarda sog‘likni saqlash tizimi nochor ahvolda bo‘lib, tibbiy muassasalarga e’tibor mablag‘ning yetishmovchiligi sababli ayanchli ahvolda bo‘lgan. 1950-yillarga kelib ahvol sezilarli

[13] Сообщение газеты «Туркестанская правда» о постройке электрической станции в старой Бухаре. История Бухарской Народной Советской республики (1920-1924). Сборник документов. Ташкент: Фан. 1976. – Б. 379.

darajada yaxshilangan. Buxoro shahrida 1947 yilda tibbiy muassasalarni ta’mirlash va jihozlash uchun sohaga 1 mln rubl mablag‘ sarflangan bo‘lsa, 1950-yilga kelib 7 mln rubl mablag‘ ajratilgan. 1958-yilda esa 1950-yildagiga nisbatan deyarli ikki baravar ko‘p mablag‘ sog‘likni saqlash ishlari uchun sarf qilingan. 1946-yilda Buxoroda 30 ta tibbiyot maskanlari hisobga olingan bo‘lsa, 1965-yilga kelib ularning soni 50 taga yetgan.

XX asr 50-yillarida Buxoro amirining qarorgohi Sitorai Mohi Xossa yonida, 100 kishiga mo‘ljallangan sanatoriya qurilib, unda har yili yuzlab aholi dam olish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Shaharda ijtimoiy ob’yektlar barpo etilishi davom etib, 1959 yilda Buxoroda madaniyat xalq universiteti tashkil etilgan. 1960-yillarning oxirida shaharda 7 ta kutubxona, 9 ta kinoteatr faoliyat ko‘rsatgan. 1966 yilda kinoteatrlar xizmatidan 1 million 759 ming kishi foydalangan.

Dunyo tajribasida yirik shaharlarni boshqarishda shaharni tumanlarga bo‘lib idora etish usullari mavjud bo‘lib, bu jarayon shaharni tezroq rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida qaralgan. Sovet davrida shaharlarni mazkur usulda boshqarish amaliyoti ham joriy qilingan edi[14].

Buxoro viloyati Xalq Sovet deputatlarining 1978-yil 26-may oyida “Buxoro shahrida tumanlarni tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori bilan shaharda To‘qimachilik va Fayzulla Xo‘jayev tumanlari tashkil etildi. Ular ma’muriy jihatdan Buxoro shahar hokimligiga bo‘ysungan.

Har ikkala tumanda faoliyat ko‘rsatgan sanoat korxonalari reja asosida mahsulot ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan. F.Xo‘jayev tumanida 17 ta sanoat korxonasi faoliyat ko‘rsatib, jumladan,

[14] Qodirov M. Buxoroning shahar madaniyati tarixi. – Buxoro, 2012. – B.28.

Yog‘-moy ekstrakt zavodi, paxta tozalash zavodi, ta’mirlash-mexanika zavodi, trikotaj-ipak o‘rash fabrikasi, non kombinati, poyafzal fabrikasi, tikuv ishlab chiqarish birlashmasi, kabilar ishlab turgan. Bu korxonalarda 44 turdagi mahsulotlar davlat Sifat belgisi bilan ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 145 turdagi mahsulotlar birinchi toifadagi Sifat belgisi bilan ishlab chiqarilgan. Birgina “Zardo‘zlik buyumlari” fabrikasida davlat Sifat belgisi asosida 11 turdagi mahsulot ishlab chiqarilgan.

To‘qimachilik tumanida 18 ta sanoat korxonasi bo‘lib, ulardan kengaytirilgan loy zavod (keramzitovыy zavod), pivo zavodi, Buxoro ip-gazlama to‘qimachilik kombinati, ta’mirlash–mexanika zavodi, un kombinati va boshqalar. 1980 yillar ma’lumotlariga qaraganda, har qaysi korxona o‘ziga belgilangan “sosialistik majburiyat”ni bajarishga harakat qilishiga qaramay, tumandagi mavjud 18 ta korxonalardan faqat 6 tasi ishlab chiqarish rejasini bajargan xolos. 1980 yillarga kelib ittifoqning ko‘pgina hududlarida iqtisodiy inqirozning boshlanib, ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining jahon standartlariga javob bermaganligi, korxonalarda 40-50-yillardan buyon foydalanayotgan texnika jihozlari allaqachon o‘z ish muddatini o‘tab bo‘lganligi ishlab chiqarish sifatiga salbiy ta’sir etib kelayotgan edi[15].

Shahar tumanlarini takomillashtirish, obodonlashtirish va sanitariya holatini yaxshilash borasida 1970-yillar so‘nggida 1 mln. 741 ming so‘m sarflangan. Jumladan, yo‘llar qoplamasini ta’mirlash, ko‘chalarni yoritish, aholi dam olish maskanlarini obodonlashtirish ishlari olib borilgan. Lekin ushbu jarayonlar shaharning taraqqiyotiga ta’sir etmadi, balki iqtisodiy beqarorlik,

[15] Ashurov Ya.S., Gelax T.F., Kamalov U.X. Buxoro. Qisqacha spravochnik. Toshkent: O‘zbekiston. 1968. - B. 80-81.

rejalarni yil sayin bajarilmay qolishi, ikki tuman oʻrtasida nosogʻlom muhit, tushkinlik holatlari kuzatildi. Natijada Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003-yil 12-dekabrdagi qaroriga muvofiq Buxoro shahridagi Fayzulla Xoʻjayev va Toʻqimachi tumanlari 2004-yil 1-yanvaridan tugatildi[16].

Sovet davrida shahar qurilishi jarayonida juda koʻp xatoliklarga ham yoʻl qoʻyilgan. Birinchidan, shahar qurilishida tabiiy omillarga e'tibor berilmay, xususan turar joy va ijtimoiy binolarni bunyod etishda shamol yoʻnalishi hisobga olinmagan. Bu hol mazkur binolarda havo almashuvini qiyinlashtirgan. Ikkinchidan shaharni koʻkalamzorlashtirishda, ya'ni shahar atrofi "yashil zonasi"ni barpo etishda yetarlicha e'tibor berilmagan. Vaholanki, choʻl zonasida joylashgan shaharni turli issiq shamollardan va tuzli chang boʻronlardan, yaratilgan yashil zona himoya qiladi. Aytish joizki, shamollar ayrim shaharlar havosini tozalashda faol ishtirok etsa, ayrimlarini ifloslashda oʻz "ulushini" qoʻshadi. Togʻli hududlar qatori tekisliklarda joylashgan shaharlar havosini almashinuvida ham mahalliy shamollarning oʻrni beqiyos. Ayniqsa, bu holat Buxoro hududida muhim ahamiyatga ega. Viloyatdagi shamollarning aksariyati shimol tomonidan esadi. Shuning uchun shaharsozlikda, aholi turar joy, korxona va turli muassasalar qurilishida bunday tabiiy qonuniyatga rioya qilinishi kerak. Uchinchidan, sovet davrida koʻpgina qadimgi binolarni yoʻq qilish amaliyoti qoʻllanildi. 1920-1960 yillar shahar qadimiy mudofaa devorining ichkari qismi boʻylab joylashgan aksariyat eski hovlilar, guzarlar, me'moriy obidalar devor bilan birga buzib tashlangan. Ark qal'asi oldidagi Registon maydoni va unga yaqin yerda joylashgan XVII asrga oid obidalari, jumladan, kattaligi jihatdan Masjidi Kalondan keyingi

[16] Авалов М. Развитие городского хозяйства Бухары. Ташкент, – С. 358.

oʻrinda turgan Poyandabiy otaliq masjidi, shuningdek Dor ush-shifo, Bozori goʻsfand, Xoʻja Nihol, Shodimbiy madrasalari, Xoʻja Saʼd Joʻyboriy tarafidan XVI asrda qurilgan Kalobod madrasasi butunlay buzib yuborilgan. Registonning janubiy-gʻarbiy yoʻnalishi boʻylab joylashgan XVI asr yodgorliklari boʻlmish toʻrtinchi va beshinchi savdo toqlari - Toqi Ordfurushon va Toqi Tirgaron ham qulatilgan. Oʻrnida yangi imoratlar, jumladan, tarixga ixtisoslashgan hozirgi 6-maktab va viloyat ichki ishlar boshqarmasi binolari qad rostlagan. Ark qalʼasi ichidagi binolarning 80 foizi buzilgan boʻlib, bir qismiga 1920 yil qizil armiya hujumlari paytida shikast yetgan boʻlsa, qolganlari bosqichma-bosqich buzib tashlangan. Bugungi kunda ark binosining faqat 20 foizi yetib kelgan, xolos [21]. Shahar mudofaa devorining katta qismi va undagi 11 darvozadan 9 tasi olib tashlangan. Qarshi darvozasi yaqinidagi Shayx Rangrez guzaridan to Kokilai Kalon guzarigacha boʻlgan hudud buzilib, oʻrnida bolalar kasalxonasi, grenaj zavodi, avtovokzal va boshqa binolar qurildi. Qarshi, Mozori sharif (Naqshband), Samarqand darvozalari yoʻnalishidagi hududda qad koʻtarib turgan Qozi Nuriddin, Imom Qozixon, Qarokamol, Mir Toxuri guzarlari tarixiy topografiyasida jiddiy oʻzgarishlar sodir boʻlgan. Samarqand va Hazrati Imom darvozalari oraligʻidagi tarixiy hududda esa, taksomotor parki, mebel magazini, oʻqituvchilar malakasini oshirish instituti binolari, qisman aholi yangi turar joylari barpo etilgan. Hazrati Imom va Oʻgʻlon darvozalari oraligʻida Xossa Poʻlod, Nazarcha, Kofar-rabot, Hoʻja Qurbon, Qozi Mir Hoshim, Askarbiy nomli tarixiy guzarlar, shuningdek, hovuz, xonakoh, Oʻgʻlon ota mozori joylashgan boʻlib, ularning barchasi buzib tashlangan, oʻrnida Buxoro pedagogika davlat instituti oʻquv

binolaridan biri, uning qarshisida esa o‘qituvchilar yashashi uchun ikki qavatli bino va Buxoro viloyat ijroiya qo‘mitasi (avvalgi madaniyat kolleji) binosi qurilgan. XX asr boshlarida Shayx Jalol guzarida kichik mozor, XVIII asrga oid masjid-xonakoh va hovuz mavjud bo‘lgan. Ushbu binolarning barchasi, shuningdek, shayx Jalol guzariga qo‘shni Sohibzoda, Mirakon, Xo‘ja Chorshanba guzarlari ham buzib tashlangan[17].

1960-yillardan mudofaa devorining quyi tarafiga ikki, to‘rt qavatli yangi turar joylar qurila boshlangach, bu hududga nisbatan “Yangi shahar”, “kichik nohiya” (mikrarayon) atamalari ishlatila boshlangan. Sovet davrida olib borilgan qurilish borasidagi “islohotlar” Buxoroning tarixiy eski shahar qismiga ziyon yetkazib, shaharning janubiy-g‘arbiy qismi butunlay o‘zgacha ko‘rinish olgan[18].

1976-yil 8-17-mayda O‘zbekistonning tabiiy gaz olinadigan hududida joylashgan Gazli shahrida birin-ketin turkum M-7.3 magnitudali, kuchi 9 balldan oshgan yer silkinishi sodir bo‘lgan. Ketma-ket bo‘lgan tebranishlar kuchi Buxoroda 7 ballga yetgan. Tabiiy ofat shahar infrastrukturasiga zarar yetkazib, ayniqsa “eski” shaharda joylashgan madaniy meros ob’yektlariga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Jumladan, Mir Arab madrasasi gumbazlari, peshtoqi, hovli ichidagi peshtoq ham shikastlangan. 1976-1977-yillar davomida katta gumbazlar va ichki hovli peshtoqlari qaytadan ta’mirlangan. 1977-yilda 920.8 ming so‘mlik maxsus ilmiy–restavratsiya ishlari olib borilgan. Shahar uy-joy ob’yektlarini ta’mirlash va qurishda boshqa qardosh

[17] Rahmonov K. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tarixi matbuot sahifalarida. Toshkent: Abu Matbuot-konsalt, 2012. - B. 78.

[18] Aminov A. Markaziy Osiyo shaharsozligi tarixi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2010. – B.45.

respublikalardan quruvchilar ham jalb qilingan. Zilziladan so‘ng shaharda 10000 aholining yashashi uchun mo‘ljallangan 4 ta kichik nohiya qurilib, foydalanishga topshirilgan. Shuningdek, 4 ta maktab, 4 ta yozgi kinoteatr, 1 ta bolalar poliklinikasi va boshqa binolar bunyod etilgan. Qurib foydalanishga topshirilgan 4 ta kichik nohiyalarda hozirgidek dam olish uchun yashil zonalar, piyodalar uchun yo‘laklar, uylar orasida ichki yoritish moslamalari bo‘lmagan. Shuningdek, uylarning pastki qavatlarida yashovchi aholi o‘z bilarmonlik qilib garaj va turli xil saqlash xonalarini qurib, tomorqalarga qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ekkan. Bu esa shahar ko‘rinishiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

1970-yillarda shaharda 7000 ga yaqin talabasi bo‘lgan S.Orjonikidze nomidagi davlat pedagogika instituti, Toshkent politexnika institutining 2300 talaba ta’lim olayotgan filiali, 8700 o‘quvchisi bo‘lgan 2 ta o‘rta maxsus o‘quv yurti, har yili 300 dan ortiq turli kasbdagi ishchilar tayyorlab bergan 7 ta hunar-texnika bilim yurti, 3100 dan ziyod o‘quvchi tahsil olgan 33 ta umumiy ta’lim maktablari, 8 ta ishchi yoshlar maktabi va 12000 bola tarbiyalangan 73 ta maktabgacha tarbiya muassasalari mavjud bo‘lgan.

1980-yillarda shaharda yangi sanoat korxonalari va ijtimoiy ob’yektlar barpo etilgan. 1980-1990-yillarda to‘qimachilik kombinati, 1987-yilda yangi poyabfzal fabrikasi, ishga tushirildi.Radio uyi foydalanishga topshirilgan, 1989-yilda Buxoro Tibbiyot instituti ish faoliyatini boshlagan[19].

Buxoro shahri 1920-1990-yillarda 70 yillik taraqqiyot va tanazzul davrlarini boshidan kechirdi. Bu yillarda hukumat

[19] O‘zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida.Toshkent: Sharq, 2000. - B. 228.

me’moriy obidalarni asrash va ta’mirlash bilan bir paytda, ularni buzib tashlash ishlarini ham amalga oshirdi. Bu asrlar davomida saqlanib kelayotgan tarixiy inshootlarning nom-nishonsiz yo‘qolib ketishiga sabab bo‘ldi.

Shaharda zamonaviy binolar, istirohat bog‘lari, sanoat korxonalari, zavod va fabrikalar, to‘qimachilik kombinatlari qurilgan. Muhandislik, transport, kommunikatsiya va logistika xizmatlari yo‘lga qo‘yildi. Ammo shahar markazidagi sanoat korxonalari, ayniqsa, go‘sht kombinati, yog‘ zavodi, paxta zavodi va shunga o‘xshash shahar ekologiyasiga zarar keltiradigan zavod va fabrikalar shahar qiyofasiga va hayotiga turli ijtimoiy muammolarni kuchayishiga sabab bo‘ldi.

II.3-§. Mustaqillik yillarida Buxoro

Shaharning chekka hududlarida o'sish, markazdagi vayronagarchilik jarayonlari allaqachon uzoqqa ketgan edi. Ammo 1991-yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, kapitallashuv va xususiylashtirish boshlanganidan buyon eski turmush shakllari yana yuksak qadrlana boshlagandek. Yakka tartibdagi uy-joyga ega eski shahar tobora jozibali bo'lib bormoqda.

Ushbu yangi hududlarning shahar tuzilishi taxminan 150 dan 400 kvadrat metrgacha bo'lgan xususiy uchastkalardan iborat. Unga yakka tartibda qurish mumkin. An'anaviy materiallardan foydalanish ustunlik qiladi, chunki u hududning iqlim sharoiti va madaniy an'analarini hisobga oladi. Ushbu tendentsiyalarni Mikrorayonlar turar-joy binolarida ham ko'rish mumkin. Ushbu bloklar endi xususiy mulk ostida bo'lganligi sababli ko'plab o'zgarishlar boshlandi. Hovliga qaragan balkonlar

ko'proq yashash joyi yoki ko'proq shaxsiy hayotga muhtojligi sababli yopilgan. Ko'cha sathlari asosiy o'qlarda tijorat maqsadlarida foydalanish uchun tobora qiziqarli bo'ldi[20].

Ijtimoiy infratuzilmaga kelsak, sport markazlari, stadionlar, poliklinikalar va ma'muriy binolar kabi turli vakillik jamoat binolari hozirda restavratsiya qilinmoqda yoki amalga oshirilmoqda. Yetmishinchi yillardagi sotsialistik shaharning shaharsozlik ideallari shaharsozlikning hozirgi vazifalariga ko'chiriladi va o'zlashtiriladi. Har bir mikrorayon va uning bo'linmalari uchun standart elementlar bo'lgan ijtimoiy, ma'muriy va madaniy funktsiyalarning kichik binolari tobora ko'proq tijorat maqsadlarida foydalanishga topshirilmoqda.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, Buxoro o‘tish davridagi shaharga aylandi. Ko'pgina omillar, jumladan, sotsialistik davrning rejalashtirish kontseptsiyasi shahar markazining jismoniy va ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishining yomonlashuvida katalitik rol o'ynadi va shaharga katta bosim o'tkazdi. Qanday maqsadlarni rivojlantirish kerak? Yangi sharoitlarda muhim sifatlar va shahar tuzilishini saqlab qolish, jonlantirish va malakasini oshirish uchun qanday asosiy urbanistik strategiya zarur? Mavjud tuzilmalarning eskirishiga yo'l qo'ymaslik uchun strategiyalar, dasturlar va chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur. Shu munosabat bilan markazlarga o'ziga xos, ko'p funksiyali xususiyatni qaytarish maqsad bo'lishi kerak. Shu sababli, shahar boshqaruvi strategiyalarini ishlab chiqish, tarkibiy va funktsional o'zgarishlarni bartaraf etish va iqtisodiy vaziyatni yaxshilash uchun institutsional sharoit va salohiyatni oshirish zarur.

[20] https://sanat.orexca.com/2002/2002-3/history_art3-9/

Tabiiy resurslarni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish kabi boshqa jihatlar ham xalqaro muhokama mavzusiga aylanmoqda. Yashash uchun asosiy shart barcha aholi uchun kafolatlangan bo'lishi kerak. U ekologik, ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy jihatlarni qamrab olishi kerak. Hozirgi avlodning ehtiyojlari kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini xavf ostiga qo'ymasdan bajarilishi kerak. Tabiiy va inson resurslari tufayli aholi punktlari ekstremal muhitga moslashtirildi va bizning kunlarimizda himoya qilinishi kerak bo'lgan va kelajakda barqaror rivojlanishga erishishimiz mumkin bo'lgan an'anaviy tuzilmalar yaratildi. Sovet davri rejalashtirish eyforiyasi bilan ajralib turardi va shaharsozlik va rivojlanishning ma'lum modellari sotsialistik shaharning o'ziga xos hodisasidir. Ushbu rejalashtirish modellarining ko'pchiligida ma'lum bir uzoqni ko'rish qobiliyati yo'q edi. Butun sobiq sotsialistik mamlakatlarda ilgari imtiyozli zonalar ijtimoiy mavqeini yo'qotmoqda, shaharlarning yangi kvartallarida yangi burjuaziya uchun xususiy uy-joy qurish tendentsiyasi kuchli. Ammo demografik o'sish va O'zbekiston kabi mamlakatlardagi iqtisodiy vaziyat tufayli biz sotsialistik uy-joylarning yangi qabul qilinishini topamiz va hozirda norasmiy jarayonlar shaharning barcha darajalarida va barcha hududlarida kuchayib borayotganga o'xshaydi[21].

Bizning kelajakdagi umumiy tadqiqotlarimiz o'tmishdan nimani o'rganishimiz mumkinligini aniqlashga yordam beradi. Qaysi shahar naqshini kelajakdagi shahar rivojlanishi tamoyiliga va istiqbolli g'oyalarga aylantirish mumkin? O'zbekiston shaharlari Sharqiy Yevropa shaharlariga nisbatan qanday

[21] https://voicesoncentralasia.org/urban-planning-in-bukhara-in-the-early-post-revolutionary-years/

rivojlangan? Rivojlanish jarayonlari va funksional aloqalarni anglash, aniq bilim va nihoyat, eski tuzilmalarda, shuningdek kengaytirilgan sotsialistik kvartallarda va yangi turar-joylarda yangi funksiyalarga oid g'oyalar shahar tuzilishini jozibali kelajak muhitiga aylantirishi mumkin.

Xulosa

Buxoro shahrining urbanistik rivojlanishi uzoq tarixiy jarayonlarni o‘z ichiga olgan murakkab tizim bo‘lib, u shahar hayotining siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ekologik jihatlari bilan chambarchas bog‘langan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Buxoro o‘zining tarixiy markaziy tuzilmasini asrlar davomida saqlab qolgan holda, har bir davrda yangi urbanistik qatlamlar bilan boyigan.

Qadimgi davrlarda shahar shakllanishi tabiiy-geografik sharoitlar va karvon yo‘llari bilan bog‘liq bo‘lgan. O‘rta asrlarda Buxoro ilm-fan va savdo markaziga aylanganligi tufayli shaharsozlikda me’moriy uyg‘unlik, masjid va madrasalar atrofida markazlashgan rejalashtirish tizimi vujudga kelgan. Sovet davrida esa sanoatlashuv va aholining o‘sishi natijasida shahar hududi keskin kengayib, yangi tumanlar va turar joy massivlari shakllangan.

Mustaqillik yillarida urbanistik rivojlanish jarayonlari milliy me’morchilik an’analarini saqlagan holda zamonaviy infratuzilma, transport, turizm va xizmat ko‘rsatish sohalarining rivojlanishiga yo‘naltirilgan. Shuningdek, Buxoro shahrining “Eski shahar” hududi YuNESKOning Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgani, shaharsozlik siyosatining madaniy merosni muhofaza qilish bilan uzviy bog‘liq holda olib borilayotganini tasdiqlaydi.

Bugungi kunda Buxoro uchun eng muhim masalalardan biri — barqaror urbanistik rivojlanish strategiyasini shakllantirish, ya’ni ekologik xavfsiz, transport jihatdan qulay, energiya tejamkor va madaniy jihatdan boy shahar muhitini yaratishdir.

Tadqiqot natijalariga koʻra quyidagi xulosalar va tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Buxoro shahrining urbanistik rivojlanishida tarixiy merosni saqlash bilan birga, zamonaviy shahar bosh rejasini qayta koʻrib chiqish zarur

2. Shahar markazida madaniy turizmni rivojlantirish orqali iqtisodiy faollikni oshirish mumkin;

3. Yangi qurilishlarda mahalliy meʼmoriy uslublardan foydalanish Buxoroning identifik qiyofasini saqlab qoladi;

4. Urbanistik siyosatda aholining ehtiyojlari, ijtimoiy adolat va ekologik barqarorlik tamoyillari uygʻun holda inobatga olinishi lozim.

Umuman olganda, Buxoro shahrining urbanistik rivojlanishi — bu tarix, madaniyat va zamonaviylikni birlashtiruvchi noyob jarayon boʻlib, u nafaqat oʻtgan asrlarning meʼmoriy yodgorliklarini, balki kelajak avlodlar uchun barqaror va yashashga qulay shahar muhitini yaratish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

I. Adabiyotlar

1. Aminov A. Markaziy Osiyo shaharsozligi tarixi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2010.
2. Ashurov Ya.S., Gelax T.F., Kamalov U.X. Buxoro. Qisqacha spravochnik. Toshkent: O‘zbekiston. 1968. - B. 80-81.
3. Axmedov L. Buxoro xonligi va shaharlik jamiyat. – Toshkent, 2004.
4. Rahmonov K. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tarixi matbuot sahifalarida. Toshkent: Abu Matbuot-konsalt, 2012. - B. 78.
5. “Buxoro axbori”, 1921-yil 13-yanvar; “Ozod Buxoro”, 1923-yil 17-noyabr.
6. Mo‘minov H., Muzaffarov A. Buxoro oblasti. Toshkent: O‘zbekiston, 1976. - B. 65.
7. O‘zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Toshkent: Sharq, 2000. - B. 228.
8. Junayev Z. Buxoro Xalq Sovet Respublikasida moliya sohasidagi ahvol va banklar faoliyati // O‘tmishga nazar. 2020. Maxsus son. - B. 149-150.
9. Qodirov M. Buxoroning shahar madaniyati tarixi. – Buxoro, 2012.
10. Авалов М. Развитие городского хозяйства Бухары. Ташкент, – С. 358.
11. Асқаров А. Бухоронинг ибтидоий тарихидан лавҳалар. Тошкент, 1973.

12. Баракаев Ж., Ҳайдаров Й. Бухоро тарихи. Тошкент, 1981.
13. А.Муҳаммаджонов. Бухоро шаҳри - 2500 ёшда. Т: 1998. 106
14. Мирзақулов Б. Бухоро тарих зарварақларида. Тошкент 2016.
15. Иноятов Х.Ш. Создание основ народно-демократического строя в БНСР. 50-лет Бухарского Народной Советской революции материалы научной сессии. Ташкент: Фан, 1972. – Б. 82.
16. Сообщение газеты «Туркестанская правда» о постройке электрической станции в старой Бухаре. История Бухарской Народной Советской республики (1920-1924). Сборник документов. Ташкент: Фан. 1976. – Б. 379.

I. Internet saytlari

17. https://sanat.orexca.com/2002/2002-3/history_art3-9/
18. https://voicesoncentralasia.org/urban-planning-in-bukhara-in-the-early-post-revolutionary-years/
19. https://whc.unesco.org/en/list/602/

ILOVA



9145. Закаспийская Область. Бухара. Дворецъ Эмира и базаръ. 9.